

TOPISHMOQ– FOLKLORNING MUSTAQIL JANRI

**Safarova Nigora Oxunjonovna**  
*filologiya fanlari nomzodi, professor*  
**Yusupova Mexrigul Asrorovna**  
*BuxDUPI magistri*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini topishmoq janrlari haqida fikr yuritilgan.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются жанры загадок для младших школьников.*

**Annotation:** *The article discusses the genres of riddles for younger schoolchildren.*

**Kalit so'zlar:** *topishmoq, janr, folklor, o'quvchi, bola, tarbiya.*

**Ключевые слова:** *загадка, жанр, фольклор, читатель, ребенок, воспитание.*

**Key words:** *riddle, genre, folklore, reader, child, upbringing.*

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Bolalarning suygan janrlaridan biri tomishmoqdir. Topishmoq qadimgi janrlardan biri bo'lib, avloddan-avlodga o'tib sayqal topib kelayotgan fol'klorning mustaqil janridir. Topishmoq juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Ba'zi topishmoqlarning ob'ekti, shakli hamda mazmuni qadimiyligini ozmi-ko'pmi aniqlashga imkon beradi. Ota-bobolarimiz davridan topishmoq tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini ko'proq belgilashga katta yordam bergan. Kishilar qadim zamonlardan boshlab hozirgacha asta-sekin tabiat va jamiyatdagi inson uchun foydali va zararli bo'lgan hodisalar, jonli, jonsiz predmetlar, umuman har xil ob'ektlarni o'z zamoni va tushunchasi doirasida anglagan holda tomishmoq yaratib kelganlar. Topishmoq bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, yangi-yangi topishmoqlar yaratilib, ommalashib bormoqda. SHoirlarimiz, adiblarimiz ijodlarida ham bu janr o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekistonning turli joylarida uni turlicha atamalar bilan atash rasmga aylangan. Chunonchi, Toshkentda jumboq, uning atroflarida cho'rchak yoki top-top cho'pchak, Buxoroda shug yoki chiston, Farg'ona vodiysida topmacha yoki masala, boshqa joylarda esa top-top matal, jumboq yoki jummoq tarzida nomlangan holda yuritiladi. Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va

totemistik karashlari shakllana boshlagan davrlarda-"insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda" (F.I.Buslaev) paydo bo'la boshlagan. Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi o'zliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o'z nomlari bilan aytmay, ularni g'ayritabiiy kuchlar zararidan, insu jinslar va balo- qazolardan omon saqlashni ko'zlab, boshqa so'zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlari tufayli ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o'zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin, aytaylik, otani-nor, momoni-tuya, echkini-Abdukarim, quyonni-uzunquloq, itni-shalpangquloq, ko'zni-darcha, bug'doyni-qizil deb atalashida o'sha sirlilik nishonalari mavjud. Qolaversa, eru xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatda xotinning erini-"dadasi", erning esa xotinini-"onasi" deyishida ham o'sha e'tiqod ta'sirini kuzatish mumkin. Bunday holat ibtidoiy ajdodlarimizning kosmogonik tasavvurlari misolida yanada yorqinroq ko'rinadi. Ibtidoiy ajdodlarimiz animistik e'tiqodlariga ko'ra quyosh, oy va yulduzlarni ota, ona va bolalariga qiyosan tasavvur qilganlar: "Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi" yoki "Otasi bitta, bolasi mingta" singari topishmoqlarda shunday holat kuzatiladi. SHular bilan birga har bir xalqda o'zini o'rab olgan muhit, mintalitetga daxldor turmush tarzi va mehnati jarayonidagi narsa va hodisalarni badiiy tafakkur sintezidan o'tkazish xos bo'lib, bularni o'z nuqtai nazariga mos badiiy obrazlarda ifoda etgan holda yashiradi jumboqlaydi. Chunonchi, osmon va yulduzni "ko'k ko'ylak" va "g'o'za" yoki ("ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim"), "yong'oq yoymoq" ("kechasi yong'oq yoydim, ertasi qarasam yo'q"); "tom" va "tariq" ("tomning ustiga tariq sepdim, erta qarasam yo'q"); "Kosa" va "so'k" ("bir kosa so'k, ertasiga yo'q"); "taqiya" va "so'k" ("taqiyam to'la so'k, erta qarasam yo'q"), "qora uy" va "ming chiroq" ("qora uyda ming chiroq, uni yoritmas biroq") obrazlarida yashirish o'zbeklar e'tiqodigagina xos bo'lsa, ruslarda "dala" va "qo'ylar" ("pole ne meryano, ovcq ne schitanq"), evenklarda "teri va uning teshiklari" ("lejit bolshaya shkura, vsya v dqrochkax") obrazlari vositada jumboqlanganki, bu hol topishmoqlarning milliylik ruhini belgilagan.

Topishmoqlar o'xshatish, qiyoslash, ko'chim, ishora, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashiringan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, xodisalarning belgilarini taqqoslash, imo-ishora qilish orqali javobi aniqlanadigan jumboqlardir. SHuning uchun ham mamlakatimizning ayrim hududlarida (shevada) topishmoqlarni jumboq deb ataydilar. Ba'zan matal degan so'z ham ishlatiladi. Barcha uchun tushunarli va ma'qul sanalgan topishmoq tushunchasi aynan uning mohiyatini aks ettiradi. Har qanday topishmoqda yashiringan ma'no bo'ladi. Uning javobi tinglovchining bilimi, dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi, hozirjavobligi, oldin egallagan bilimlariga suyangan holda izlab topiladi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo'nalishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamolotiga ta'sir etishning vositasi bo'lib kelgan. Topishmoqlar qaysi darajada muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq qo'yadi hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratishi mumkin.

Hayot va undagi mavjudot haqidagi bilim-tushunchalarini, idrok va tasavvurni, fikr-mulohazalarni kengaytirish uchun zarur ta'lim vositalaridan biri bo'lgani tufayli topishmoqlar soddadan murakkabga, osondan qiyinga, aniqdan noaniqqa, ma'lumdan noma'lumga borish usulida yaratiladi.

Topishmoqlar boshlang'ich sinf darsliklariga etarlicha kiritilgan deb hisoblaymiz. Ammo ularning ayrimlari keyingi sinflarda takrorlanadi. Bu noo'rindir. Chunki o'quvchi javobini bilgan topishmoq uchun o'ylab, mulohaza yuritib o'tirmaydi. Shuning uchun ham topishmoqlarning turli variantlaridan foydalanilsa ma'qul bo'lar edi.

O'zbek fol'klori janrlari ijodkorlar faoliyati bilan ham chambarchas bog'liq. Topishmoq va maqol singari janrlar ommaviy ijroga mo'ljallangan

Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq o'zbek folklorining ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o'rab olgan olam topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar, qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir. Demak, u - xalqaro janr. SHu bilan birga har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos, original, jozibali va benazirdir.

Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruh yoki topishmoq aytuvchi va uni echuvchilar, javobini topuvchilar bo'lishi kerak. Topishmoq aytilishi bilan uning javobi topilgach, ketma-ket navbatdagilari aytila beradi. SHuning uchun ham topishmoq aytish hozirgi paytda aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, o'yin-kulgi, ko'ngil ochish vositasiga aylangan.

Xalq o'rtasida "O'zi g'ir mitti, urdi yiqitdi" (uyqu), "Otdan baland, itdan past" (egar), "Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim" (osmon va yulduzlar), "Qoziq ustida qor turmas" (tuxum) kabi juda keng tarqalgan topishmoqlar borki, ular aytilishi bilan darhol javobi topiladi. Ammo topishmoqlarning shundaylari ham borki, javobini topish ancha qiyin, hatto katta turmush tajribasi bor kishilarni ham o'ylantirib qo'yadi. Bunday hollarda javobni topishni engillashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar beriladi, ya'ni javobni topuvchilar aytuvchidan "jonlimi, jonsiz?" deb so'raydilar. Shunda ham javob topish qiyinlashsa, "Qattiqmi, yumshoq?", "Achchiqmi, shirin?", "O'zi qanday?", "qaerda bo'ladi?" kabi qo'shimcha so'roqlar o'rtaga tushadi. Javob topilmagach, "shahar" beriladi. "SHahar olish" topishmoqni topa olmagan kishini uyaltirish, izza qilish va shu bilan davraga xushchaqchaqlik kiritish vositasidir. Aytuvchi topishmoq javobini topolmagan kishini quyidagicha uyaltirib, so'ng o'zi javobini aytib beradi: "Shahar, unda boru munda kel, kelib mening qoshimga yiqil. Ikkalamiz ketaylik. Sen ham keta berib, tap etip bir xaloga tushding. Men ham keta berib, jarang etib bir tillaxonaga tushdim. Bir devona:- "Hey, do'st",- deb keldi. Men bir olovkurak tilla chiqarib berdim, meni tol ko'chada alqab-alqab ketdi. Sen bordingu, bir olovkurak go'ng chiqarib berding, seni tol ko'chada qarg'ab-qarg'ab ketdi. Men ham bir otga mindim, sen bir yag'ir eshakka minding. Kunjaradan non

qilib, eshakning yaqiriga kunjarani tegizib, yalab-yalab ketding. Men bordim, shinni bilan murabboga nonni tegizib, yalab-yalab ketdim. Hay, sen topmasang, men topay, og'zingga katta bir tappini yopay. Uning o'zi...".

Topishmoqlar shartli yashirin nutq asosida yuzaga kelgan bo'lib, uning zamini kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bila borish va idrok etish darajasi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, 3.Husainovaning yozishicha: "O'tmishda tabiat va tabiat hodisalarining o'zi bir jumboq bo'lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va echa olmaganlar, ularga u sirlar bir mo'jizaday bo'lib ko'ringan... Shaxs o'zini qurshab turgan tashqi ob'ektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo'l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash va ba'zan qarama-qarshi qo'yish bilan o'rgana boshlagan. Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, ko'k guldurashi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg'ir yog'ishi kabilarning mohiyatini to'la anglab etmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ularning hammasida jon bor, deb tasavvur qilganlar. Bunday tushunchalarning ba'zi ko'rinishlari topishmoqlarda ham uchraydi. "Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi" topishmog'ida quyosh, oy, yulduzlar insonga qiyos qilinib, jonlantirib berilishi ibtidoiy tushunchalar bilan bog'liq. Chunki inson hali tabiat va uning sirlarini to'g'ri tushunib eta olmagan, totemistik tushunchalar hukmron bo'lgan paytlarda quyosh va oyni otalik va onalik boshlang'ichi - ota va ona deb tasavvur etgan". Demak, topishmoqlar bir vaqtlar muayyan magik vazifalarni ado etgan zamonlaridan boshlab, aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasiga aylangan davrlarigacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Shuning uchun ham ular hayotni tasvirlash mohiyati, tuzilishi, badiiy xususiyatlari jihatidan turli-tuman bo'lib, ko'p zamonlar izini o'zlarida saqlaganlar, xalqning estetik didi, hissiy tuyg'ulari osha borgan, tabiat va jamiyatni bilish qudrati kuchaya borgan sari ulardagi mifologik tasavvurlar va qadimiy tushunchalar susaya borib, poetik bosim birinchi planga chiqa boshlagan. Natijada, topishmoq turli-tuman marosimlar bilan bog'liqligi va boshqa maishiy funkciyalarini yo'qotib, sof badiiy-estetik vazifa o'taydigan janrga aylanib qolgan.